

Sh.B. Jumayeva

DINSHUNOSLIK



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих выдач _____	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Jumayeva Shoirra Berdiyarovna

DINSHUNOSLIK

O'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent
«Renesains sari»
2024

UDK 338.48;378
KBK 75.81
J-35

Jumayeva Sh. B. DINSHUNOSLIK. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: "Renesains sari", 2024. 72 b.

Tuzuvchi:

Sh.B. Jumayeva – *Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti v.b., t.f.f.d.(PhD).*

Taqrizchilar:

A.Rozakov – *O'zMU Tarix fakulteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti.*

Y.X. Gaffarov – *Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrası professori, tarix fanlari nomzodi.*

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma jahon dinlari mohiyati va kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqei haqida tushuncha berish, jamiyatni ma'naviy jihatdan kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish masalalariga bag'ishlangan.

Qo'llanma O'zbekistondagi ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, magistrilar hamda bevosita tarixga qiziquvchi keng kitobxonlarning barchasiga mo'ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2023-yil 21-avgustdagi 2-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsıya etilgan.

ISBN 978-9910-9359-5-4

KIRISH

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Jumladan, mamlakatimizda o'zligimizni anglash, ma'naviy qadriyatlarni tiklash jarayoni bilan bir qatorda dinga munosabat ham tubdan o'zgardi. Sobiq sovet davrida xalqimizning diniy qarashlari poymol etilib, ateistik siyosati yuritilgan bo'lsa, mustaqillikning ilk davridayoq xalqimizning diniy erkinligi qayta tiklanib, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya faolıt ko'rsatmoqda.

Yangi O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik – davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega bo'lib, dunyoviy davlat hamda din orasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Jumladan, Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilab qo'yilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jamiyatda diniy bag'rikenglik tamoyilini o'rnatishda, yosh avlodning dunyo dinlari tarixi va mohiyatini to'g'ri anglamog'i muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jamiyatda har bir shaxs "dunyoviylik" tamoyilini to'g'ri anglamog'i, o'zga din vakillariga, ularning an'ana va qadriyatlariga hurmat bilan qarashi lozim. Bu esa o'z navbatida jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanmaning asosiy maqsadi talaba yoshlarda milliy va diniy qadriyatlarning mushtarakligi, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi hamda jahon dinlari tarixi va mohiyati to'g'risida tasavvur, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.


JA'HON DINLARI: BUDDAVIYLIK

Reja:

1. Buddaviylik dining vujudga kelishi
2. Buddaviylik ta'limoti va o'ziga xos jihatlari
3. Buddaviylik dinining dunyo bo'ylab tarqalish xaritasi
4. Buddaviylik dinining asosiy manbalari

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar: Buddaviylik, din, falsafiy ta'limot, Siddxartxa Gadjama (Gautama), varna, axloqiy normalari, jamiyat, donishmandlik, nirvana, Tripitaka, sutra, stupa, diniy oqim, e'tiqod, maxayana.

Jahon dinlari ichida eng qadimiy dinlardan biri-Buddaviylik hisoblanib, miloddan avvalgi VI - V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan bo'lsada, Osiyo qit'asida keng tarqalgan. Mazkur dinga e'tiqod qiluvchi aholi asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tailand, Laosda va qisman Yevropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari - Buryatiya, Qalmiqistonda hududlarida istiqomat qiladi.



1-rasm. Budda diniga e'tiqod qiluvchi aholi istiqomad qiladigan mamlakatlar¹.

¹ <https://laminarts.ru/>

Hozirgi kunda dunyoda buddaviylar soni 750 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga yaqini monaxlardir.

Buddaviylik- din yoki falsafa, ideologiya yoki madaniyat qonunlari to'plami yoki hayot tarzi.

Budda dini asoschisi manbalarda Siddxartxa, Gautama, Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djipa, Bxagavan kabi nomlar bilan qayd etilgan.

Buddaviylikning vujudga kelishi Hindistonda miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarida yuz berib, tarixan kichik Shakya qirolligi (zamonaviy Hindiston va Nepal chegarasida joylashgan) shahzodasinomi bilan bog'liq. U zohid bo'lib, ma'rifatga erishgan - Siddhartha Gautama (Sanskrit) yoki Siddhattha Gotama (Pali), keyinchalik ham Budda Shakyamunining ruhiy unvoni bilan tanilgan.



2-rasm. Budda xaykali.

Siddhartha Gautama - Budda mil. av. 623 yilda tug'ilib, 544 yilda vafot etgan. Biroq ko'pchilik tadqiqotchilar uning tug'ilishi mil. av. 564 yilda, o'limi esa 483 yilda deb hisoblaydilar.

Saroyda hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan shahzoda Siddxartxa saroydan tashqari xayotdagi qiyinchiliklar, azob va uqubat bilan yashayotgan insonlar hayotiga guvoh bo'ladi. 30 yoshga kirgan shahzoda, insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini axtarib saroyni tashlab ketadi. Dastlab, rohiblar bilan qishloqma-qishloq yurib, asosiy maqsadi – insoniyatni azob uqubatlardan qutqarishga erisha olmasligini anglagach, rohiblar jamoasidan ajraladi.

Xaqiqatni anglamaguncha daraxt tagida utirgach, 49-kuni unga "Sen haqiqatni topding" degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. Shu ondan u Budda - nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa - nurlangan daraxt deb atala boshladi.

Ilk bor Budda diniy da'vati 5 rohib do'stiga qilib, ular shogird va izdoshiga aylanadi. Bu tarixiy da'vat Varanasi shahrida yuz berdi. O'z shogirdlari bilan budda boshqa qishloqlar, shaharlarda ta'limotini targ'ib etdi. 40 yil davomida Budda ko'plab shogirdlar va izdoshlari bilan o'z diniy ta'limotini Hindistonning turli hududlarida targ'ib etib, 80 yoshida vafot etadi. Uning vafotidan so'ng, mahalliy hind urf-odatlariga ko'ra, uning jasadi o'tda yoqilib, 8 ta diniy jamoalariga xoki bo'lib beriladi. Diniy jamoalar tomonidan Budda xoki kuyilgan joyda ibodatxonalar bunyod etildi. Buddaning hayoti bilan bog'liq ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud bo'lib, bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Jahon dinlari orasida Buddaviylik Oliy yaratuvchi kuchlarning borligi rad etuvchi yagona din hisoblanadi.

Budda fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu hayot kechirishidir.

Buddaviylik dinida "hayot - bu azob, uqubatdir" va "najot yo'li mavjud" g'oyalari asosiy hisoblanadi. Budda ta'limotning

mohiyati to'rtta oliyjanob haqiqat yotadi:

- Birinchidan, dunyo nomukammal va azob-uqubatlarga to'liq;

- ikkinchidan, azob-uqubatlar manbai samsara g'ildiragini aylantiradigan istaklar va hayotga chanqoqlikdir - hayot, o'lim, yangi tug'ilish tsikli.

- uchinchidan, ma'rifatga (bodhi) va oxir-oqibat nirvanaga, ya'ni baxtli yo'qlik holatiga erishish orqali samsara tsiklidan qutulish mumkin.

- to'rtinchidan, axloqiy amaliyot, meditatsiya va donolikni saqlashni o'z ichiga olgan sakkiz bosqichli ozodlik yo'li mavjud. Bu yo'l - "Sakkizta narsaga amal qilish, to'g'ri tushunish, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, fikrni to'g'ri jamlash". Bu yo'ldan borgan inson Budda yo'lini tutadi. Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddaviylik ta'limoti asosan uch qismdan iborat: 1) meditatsiya; 2) axloq; 3) donolik.

Bir necha yuz yillar davomida Budda ta'limoti og'zaki tarzda talqin etilgan bo'lib, m.avv. I asrda palma daraxti barglariga yozilib, devon shakliga keltirilgan va uch savatda saqlangan. Tripitaka (yoki Tipitaka) - uch savat atamasi mana shu sabab vujudga kelgan. Buddaviylikning bu yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan.

Budda diniga e'tiqod qiluvchilar 5 qoidaga amal qilishlari shart:


- Tirik jonzorlarga ozor bermaslik;

- o'g'irlik qilmaslik

- yolg'on so'zlamaslik;

- yalqovlik qilmaslik;

- mast qtluvchi moddalar-spirtni va narkotik iste'mol qilmaslik.



3-rasm. Dunyoga mashhur Maxabodhi ibodatxonasi (Hindiston).

Budda dinida ibodatxonalar bunyod etishga alohida e'tibor qaratiladi, me'mori yechimiga ko'ra mashhur ibodatxonalar bo'lib, bugungi kunda ziyorat turizmi abyekti sifatida mazkur ibodatxonalar muhim ahamiyatga ega. Budda diniy obidalari sifatida stupalar muhim rol o'ynaydi. Dastlab, stupalar Budda xoki saqlash maqsadida bunyod etilgan. Bugungi kunda stupalarning me'moriy yechimiga ko'ra bir nechta ko'rinishlari mavjud bo'lib, me'moriy jihatdan o'ziga xosligi mahalliy an'analar bilan bog'liq. Asosan, yarimshar, to'rtburchak zinali stupalar keng tarqalgan. Buddistlar stupalarni aylanib, diniy marosimni bajarishadi.

Ana shunday dunyoga mashhur ibodatxonalardan biri *Mahabodhi* ibodatxonasi hisoblanadi. YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan mazkur mashhur buddistlar ibodatxonasi Hindistonning Bixar shtatida joylashgan. Gautama Siddxarta ma'rifatga erishgan va Buddaga aylangan joyda Bodh Gaya da joylashgan. Bodh Gaya – Hindistonning Bixar shtatida, Patna shahridan 96 kilometr uzoqlikda joylashgan. Ibodatxona

majmuasiga muqaddas Bodxi daraxti ham kiradi. Bu daraxt Shri-Lankadagi Shri-Maha Bodxi daraxtining urug'idan o'stirilgan, u o'z navbatida Budda ma'rifat topgan asl Mahabodhi daraxtidan olingan.

Budda ibodatxonlarida mazkur din ta'limotidagi 3 xazina jamlangan: Budda (uning xaykali va boshqa tasvirlar), dxarma, buddizm qonunlari matnlarda aks etishi, hamda sangxa, ibodatxona va monastrlarda istiqomt qiluvchi monaxlar.

Yana bir muhim jihati shuki, budda dini mamlakatimiz tarixi bilan xam bog'liq. Mil. av. I asr va milodning IV asrlari oralig'ida Kushon imperiyasi buddaviylikning Maxayana yo'nalishini davlat dini deb e'lon qildi. Kushon imperatorlari – Kanishka, Vima, Kadfiz tomonidan buddaviylik dini kengtarg'ib etildi. Jumladan, Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O'sh, Bolasog'un, Koshg'ar va boshqa shaharlarda buddaviylik takyagohlari va xonaqohlari, ibodatxonalarni qurib, buddaviylikning muqaddas kitoblari, sutra va pastirlarni o'rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratib berdilar.

Termizdagi Qora-tepa, Fayoz-tepa, Sayram, Quva va boshqa joylarda topilayotgan budda haykalchalari yoki ularning parchalari, Ayritomdagi ayvon peshtoqi parchasidagi budda musiqachilarining tasviri va boshqa ashyoviy osori atiqalar, saroy va ibodatxonalar kabi arxeologik yodgorliklari O'rta Osiyo hududida Buddaviylik dini to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Budda dini asoschisi kim? Buddaviylik dini vujudga kelishi bilan bog'liq qanday rivoyat va afsonalarni bilasiz?

2. Buddaviylik qayerda vujudga keldi? Mazkur diniy ta'limotning vujudga kelishi bilan bog'liq tarixiy jarayon to'g'risida ma'lumot bering?

3. Budda dini ta'limoti va o'ziga xos jihatai. Buddaviylikning

muqaddas kitobi qaysi?

4. Bugungi kunda Buddaviylik qaysi mamlakatlarda keng tarqalgan?

Uyga vazifa: Mavzuni rejalar bo'yicha konspekt qilish va tayanch iboralar bilan ishlash, savollarga javob yozish.

Savollar

№	Savollar	Javoblar
1	Jahon dinlarini sanab bering?	
2	Din so'zining lug'aviy ma'nosiga izoh bering?	
3	Buddaviylik dini ta'limotining o'ziga xos jihatlarini sanab bering?	
4	Nirvana tushunchasiga izoh bering?	
5	Budda diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar to'g'risida ma'lumot bering?	
6	Mamlakatimiz tarixida Budda dini tutgan o'rni va ahamiyati?	

Iboralarni izohlang

1	Buddaviylik	4	Fetishizm
2	Ibodatxona	5	Totemizim
3	Stupa	6	Animizm

1. Buddaviylik dini mavzusi bo'yicha berilgan qo'shimcha adabiyotlar bilan tanish.
2. Jahon dinlari ensiklopediyasining buddaviylik bo'limi bilan tanish.
3. Buddaviylik dini mavzusi bo'yicha referat tayyorlang.

Uyga vazifa: "Zinama-zina" metodini o'tkazishga tayorlanib kelish topshiriladi

"Zinama-zina" metodini o'tkazish bosqichlari.

Ushbu metod- talabalardagi mavjud nazariy bilimlarni mustahkamlashga va mavzu yuzasidan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga, axborotlarni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

O'tkazish bosqichlari:

1. Talabalardan kichik guruhlar shakllantiriladi va keltirilgan kichik mavzulardan ixtiyoriy birini tanlash topshiriladi.

2. Guruhlar o'zlari tanlagan mavzu yuzasidan fikr mulohazalarini yozma ravishda bayon etadilar.

3. O'qituvchi tomonidan talabalar faoliyati doimiy ravishda kuzatib boriladi.

4. Bahs munozaraga kirishlari ta'minlanib boriladi.

5. Talabalarni o'zlari bajargan topshiriq bo'yicha himoyaga chiqishlari tashkillashtiriladi.

6. O'qituvchi mavzuning mohiyatini yorituvchi bo'limlarga talabalar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarni tahlil etadi, qo'shimcha ma'lumotlarni bayon etadi va talabalarning o'zlashtirish natijalarini aniqlaydi.

Guruhlar uchun kichik mavzular:

Budda dini va uning vujudga kelishi tarixi	
Buddaviylik dini asosiy manbalari	
Budda ibodatxonalari	
Janubi-sharqiy Osiyoda budda dini	

Jadvalni to'ldiring.

Buddaviylik dining asosiy ta'limotlari	Buddaviylikning muqaddas kitobi qaysi?	Bugungi kunda Buddaviylik

2- MAVZU. JAHON DINLARI. XRISTIANLIK

Reja:

1. Xristianlik dinining vujudga kelishi
2. Xristianlik dinida mazhablarning vujudga kelishi va o'ziga xos jihatlari
3. O'rta Osiya hududida Xristian dini
4. Xristianlik diniy ta'limoti va muqaddas kitobi.

Mavzu yuzasidan asosiy tushunchalar: Xristianlik dini, ta'limot, Iso Masih, e'tiqod, Rim papasi, eparxiya, xram, pravoslav, katolik, protestantlik, xristian bayramlari, missionerlik, prozelitizm, oqim, cherkov, monastr.

Jahon dinlaridan biri xristian dini bo'lib, bu din o'ziga e'tiqod qiluvchilarning soni jihatidan ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Unga e'tiqod qiluvchilarning soni 2 milliarddan ortiq bo'lib, bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika va Osiyo hududida istiqomat qiluvchi aholi xristianlik diniga e'tiqod qiladi.

Hudud	Xristianlik diniga e'tiqod qiluvchilar soni
Yevropa	400-550 mln.
Shimoliy Amerika	250 mln.
Janubiy Amerika	380mln.dan ortiq
Osiyo	300 mln.
Afrika	400 mln.
Avstraliya	14 mln.

Xristianlik milodiy yil boshlarida Falastin yerlarida vujudga keldi. Xristian dinining kelib chiqishi va tarqalishi

milodning I-III asrlarida Rim imperiyasida yoyilgan umumiy tushkinlik, inqiroz, qullarning shafqatsizlarcha ezilishi, yaxudiylar jamoasida esa oddiy yaxudiylarning uch tomonlama ezilishi, ogir xayoti sababchi bulgan.

Iso alayhisalom tug'ilgan yillarda Falastin Rim imperiyasi ta'siri ostida edi. Yahudiylar turli mazhablarga bo'linib ketishgan, diniy masalalar daromad vositasiga aylanib ulgurgan edi. Quddusdagi muqaddas ibodatxona esa tijorat maskaniga aylantirilgan, dindagi shaklchilik samimiyatni tamoman bo'g'ib qo'ygan edi. Yakkaxudo e'tiqodiga ega yahudiylar, butparast rimliklarning qo'lidan qutilish yo'llarini izlashar edilar. Buning uchun bir qutqaruvchi, Masihni intizorlik bilan kutib turgan edilar. Iso alayhisalom ana shunday bir vaziyatda o'rta chiqdi.

Iso Masih (Iisus Xristos) – xristianlik dinining payg'ambari bo'lib, 30 yoshida payg'ambar bo'ladi. Xristianlik nomi, uning asoschisi Iisus Masix, yunoncha Iisus Xristos nomidan olingan. Iso Masih diniy ta'limotlari Bibliya tarkibiga kiruvchi Injil – Yevangeliya (Xushxabar)da, ya'ni "Yangi axd" qismida bayon etilgan.

Masih ya'ni Xristos so'zining ma'nosi "xudo tanlagan", "Xudo siylagan", "Xaloskor" ma'nolarini anglatadi. Dinining nomi xam ana shu – Xristian, masihchi so'zidan olingan. Iso alayxissalom yaxudiy millatiga mansub bo'lib, taxminan milodiy 1-33 yillarda Falastinda, hozirgi Isroilda yashab o'tgan. Milodiy yil hisobini xam Iso Masih tugilgan sanadan boshlab hisoblash qabul qilingan.

Xuddi shu davrda yahudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiylar isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab, ya'ni yaxudiy ruhoniylari diniy

haqiqatni buzib talqin etishda ayblab, uni qatl etishga hukm qildilar.

Xristianlikning muqaddas kitobi "Bibliya"ning "Yangi Ahd" qismi. U "Injil" deb ataladi. "Injil"ning dastlabki 4 kitobi Iso Masihning hayoti va ta'limotiga bag'ishlangan. Bu 4 Injil kitobi xavoriylar hamda Yuhanno tomonidan yozilgan. Mazkur din ta'limotiga ko'ra, ota-xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruh – "Troitsa" to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishikabi qarashlarni targ'ib etadi. Xristianlik ta'limotiga kura Xudo-ota tug'ilish yo'li bilan paydo bo'lmagan, xech kim yaratmagan, u o'zi abadiy mavjud.



4-rasm. Xristian dinining dunyo bo'yla tarqalishi.

- 50-100% aholi
- 11-49% aholi
- 10% aholi
- 0-0,9% aholi

Xristian jamoasining shakllanishi, uning aqidalarini tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asri boshlarida 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshdi.

325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. Unda pasxani bayram qilish vaqti belgilangan, 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo'lib o'tdi. II Jahon sobori troitsa haqidagi qoidani ishlab chiqqan va "e'tiqod tamoyillari"ni qonunlashtirgan. Konstantinopol patriarxi Rim patriarxi kabi barcha boshqa Yepiskoplarga nisbatan imtiyozlarga ega degan qoidani kiritgan. Bu soborda xristianlikdagi e'tiqod tamoyillari qabul qilinadi:

Birinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida;

Ikkinchi qismda nasroniylkda Xudoning o'g'li hisoblangan Iisus Xristosga imon keltirish haqida;

Uchinchi qismda ilohiy mujassamlashuv haqida so'z yuritilib, unga ko'ra, Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;

To'rtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va o'limi haqida so'z ketadi. Bu gunohlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechiriladi deb e'tiqod qilinishi haqida;

Beshinchi qismda Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi haqida;

Oltinchi qismda Isoning meroji haqida;

Yettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba Yerga qaytishi) haqida;

Sakkizinchi qism Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasida;

To'qqizinchi qism cherkovga munosabat haqida;

O'ninchi qismda cho'qintirishning gunohlardan forig' qilishi haqida;

O'n birinchi qism o'lganlarning ommaviy tirilishi haqida;

O'n ikkinchi qismda abadiy hayot haqida so'z yuritiladi.

395 yilda Rim imperiyasining sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketishi ikkala cherkovning ikki yo'ldan ketishiga olib

keldi.

Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul Patriarxining xristian olamida Yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim iperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istambul patriarxi Feti y orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katolikdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestanlik harakatlari vujudga keldi. Buning davrasida lyuteranlik, baptistlik, anglikanlik va kalvinlik cherkovlari shakllandi.

Pravoslav yo'nalishi. Provaslavie – ma'nosi chin e'tiqod demakdir. Provaslavie – oqimining katoliylkdan farqli jihati shuki, bu oqimda yagona diniy markaz, cherkovlarning yagona rahbari yo'ligidir. Pravoslav yo'nalishi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shahobchasi sifatida royobga chiqdi va shakllandi. Bu oqim, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslavlikning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi.


Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1 sentabrdan boshlanadi. 8 sentabr kuni "Rojdestvo boje y materi" bayrami o'tkaziladi. 12 sentabr kuni "Vozdvijeniya kresta gospodnya" bayrami nishonlanadi. Bu bayram imperator Irakliya davrida Iso krestining forslar tutqunidan qaytarib olib kelinishiga bag'ishlanadi. 21 noyabr kuni "Vvedeniye vo xram Presvyatoy bogoroditsey" bayrami o'tkaziladi. Bu bayram uch yoshli Maryamning birinchi ruhoni y tomonidan qadimiy ahd ibodatxonasiga olib kirilganligiga bag'ishlanadi. Ibodatxonaga

kirish bayramidan bir hafta oldin 15 noyabrda Rojdestvo posti boshlanadi. Va nihoyat, 20 dekabrda Rojdestvo bayrami kiradi va 31 yanvargacha davom etadi.

Isoning cho'qintirilishi "Kreshyeniya gospodnya") bayrami 6 yanvarda nishonlanadi. Bu bayram Isoning Yahyo tomonidan cho'qintirilishiga bag'ishlanadi.

Navbatdagi yana bir yirik bayram "Sreteniye" (olqishlash, kutib olish) bayramidir. Bu bayram Iso tug'ilgach avliyo Simeon tomonidan uni kutib olinishiga bag'ishlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgalik sifatida turli muddatli postlar o'tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat.



Katolik yo'nalishi. Katolik – yunoncha so'z bo'lib, ma'nosi "umumjaxon", "umumiy", "asosiy" demakdir. Katolik cherkovi markazlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Uning yagona markazi – Vatikan davlatida joylashgan. Mazkur cherkovning bosh ruhoniysi, yepiskopi, birdan bir boshligi – Rim papasi sanaladi. Rim papasiga Isoning yerdagi noibi, u din va axloq masalalarida mutloq gunohsiz, uning hokimiyati jaxon soborlari hokimiyatidan ham yuqori turadi deb qaraladi.

Katoliklar mazhabi Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, taxminan 1 milliard kishi e'tiqod etadi.

Katolik xristianlikning yo'nalishlaridan biri sifatida uning

asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig'inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik diniy ta'limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat'iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig'i bo'lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarini belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

A'rof haqidagi (do'zax va jannat oralig'idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo'lmagan gunohkorlarning ruhi u Yerdan o'tda kuyadi (ehtimol, bu vijdon va nadomat azobining ramziy in'ikosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruhning a'rofda bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr ehsonlar o'lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A'rof haqidagi ta'limot 1 asrdayoq paydo bo'lgan edi. Pravoslav va Protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi.

Pravoslavlarda turmush qurmaslik rusumini faqat qora ruhoniylar qabul qiladi. Katoliklarda esa turmush qurmaslik (tselibat) Papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko'ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Protestantlik yo'nalishi. Protestantlik tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi. "Protestantizm" atamasi "protest" (norozilik) so'zidan kelib chiqqan.




Protestantizm dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan. Protestantlikning jahon markazi AQShda, bu yerda baptist, adventist, Iyegova shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan.

Protestantlik xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, jonning o'lmasligi, jannat va do'zax (katoliklikdagi a'rofdan tashqari) haqidagi, vahiy va boshqalar to'g'ricidagi umumxristian tasavvurlarini e'tirof etadi. Biroq, Martin Lyuter katolik cherkovi bilan aloqani uzib, protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko'ra, inson Xudo bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Protestantlikning mohiyatiga ko'ra, ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning ishtirokisiz in'om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e'tiqodi va Isoning vositasi orqali ro'y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylilik hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirish saqlanib qoldi.

Vafot rtganlarga bag'ishlangan duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblardan,

sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Ibodatlar faqatgina lotin tilida olib borilishi, Bibliyaning faqatgina ruhoniylar tomonidan sharhlanishi zarurligi shartlari inkor etildi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'yning eng muhim burchi bo'lib qoldi.



Injil so'zi yunoncha "Yevangelion" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, xushxabar ma'nosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblanmish Iso Masihning Yer yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi.

Injil milodning birinchi asrida yozilgan, 27 bo'limdan iborat. Injil Iso Masihni ko'rib, uni yaqindan bilgan, uning ta'limotini sinchiklab o'rgangan mualliflar tomonidan yozilgan.

Bu din O'rta Osiyoga, xususan, O'zbekistonga ikki yo'l bilan kirib kelgan. Bu jarayon, birinchidan, xristianlikni targ'ib etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik harakati orqali, ikkinchidan, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko'plab ko'chib kelishi orqali amalga oshdi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar O'rta Osiyoning turli viloyatlariga milodning III asrlarida kirib kelganlar. Masalan, 280 yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotida (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida Yepiskoplik,

missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotida (658 yillar) Yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddistlar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lganlar. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarashli Yerlarda yashaganlar.

Xristianlikning O'zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katoliklikdir. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy va ahamiyatga molik obida sifatida qayta ta'mirlanmoqda.

O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xristianlik diniy ta'limoti qachon va qayerda vjudga keldi?
2. Xristianlikning asosiy ta'limoti nimadan iborat?
3. Xristianlikning mazhablari va ularning o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumot bering?
4. Xristianlikning muqaddas kitobi qaysi?
5. Iso Masih shaxsi haqidama'lumot bering?
6. Xristianlik dunyoning qaysi hududlarida keng tarqalgan?
7. Xristian dini muqaddas kitobi Bibliya haqida ma'lumot bering?
8. O'zbekiston hududida xristian dinining yoyilishi tarixini so'zlab bering.

Uyga vazifa: Mavzuni rejalar bo'yicha konspekt qilish va tayanch iboralar bilan ishlash, quyida berilgan vazifalarni bajaring.

No	Savollar	Javoblar
1	Xristianlik dinining vujudgakelishida tarixiy jarayonlarning o'ziga xos tomonlari.	

2	Xristian so'zining lug'aviy ma'nosi nima?	
3	Iso Masih - Xristian dini payg'ambari.	
4	Xristian dinidagi asosiy oqimlarni sanab bering?	
5	Provaslav oqimi to'g'risida ma'lumot bering?	
6	Katolik oqimi to'g'risida ma'lumot bering?	
7	Protestant oqimi to'g'risida ma'lumot bering?	

Tayanch iboralarini izohlang

1	Xristianlik	6	Lyuteranlik
2	Bibliya	7	Monastr
3	Provaslov	8	Cherkov
4	Katolik	9	Rim papasi
5	Protestant	10	Cho'qintirish marosimi

Uyga vazifa: Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar.

1. Jahon dini: Xristian dini ta'limoti va o'ziga xos jihalari mavzu bo'yicha berilgan qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishing.
2. Jahon dinlari ensiklopediyasining xristianlik bo'limi bilan tanishing.
3. Xristian dini oqimlari mavzusi bo'yicha referat tayyorlang.

Uyga vazifa:

Bahs - munozaraga tayyorlanib kelish

Bahs - munozara uchun mavzular:


1. Diniy bag'rikenglik tushunchasi
2. Diniy konfessiya tushunchasi
3. Xristian dini muqaddas kitobi Bibliya to'hrisida ma'lumot bering.
4. Xristian dini bayramlari to'g'risida ma'lumot bering.
5. O'zbekistonda Xristian dini faoliyati.

3-MAVZU. JAHON DINLARI: ISLOM

Reja:

1. Islom dini ta'limoti va vujudga kelish tarixi
2. Muhammad alayhis-salomning hayotlari
3. Hadisi sharif.
4. Tasavvuf (so'fiylik).

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar: Ishonch, iymon, e'tiqod, Alloh, Islom, namoz, zakot, ro'za, haj, ziyorat, hadis, Ka'ba, nabi, rasul, arablar, qurayshiylar, Makka, Madina, musulmon, manba, Qur'oni Karim, ilohiy kitob, sura, oyat, xalifa, arab xalifaligi, shariat, farz.



5-rasm. Islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar.

Jahon dinlari ichida eng yosh va bugungi kunda e'tiqod qiluvchilar soni kundan-kunga oshib borayotgan din bu – Islom dini hisoblanadi. Islom dinining vujudga kelish tarixi Arabiston yarim oroli bilan bog'liq. Islomdan dinidan oldingi tarix arab olamida Johiliya davri deb izohlanadi. Johiliya so'zi arab tilida

Johillik, bilimsizlik, nodonlik ma'nolarini beradi. Bu davrda arablar orasida al-Vasaniyya - ko'pxudolik hukm surib, ular yakkaxudolik e'tiqodidan bexabar edilar. Bundan tashqari xalq orasida qizlarni tiriklayin ko'mish, mayxo'rlik va boshqa axloqiy buzluqliklar keng yoyilgan edi. Mana shunday tarixiy jarayonda islom dini paydo bo'ldi.

VII asrda Arabiston yarimorolida paydo bo'lgan islom dini bugungi kunda dunyoning 172 mamlakatida keng tarqalgan bo'lib, 2,2 mlrd.kishi islom diniga e'tiqod qiladi.

Yuqorida ta'kidlanimizdek, islom dini paydo bo'lishi uchun Arabiston yarim orolida budparasilik keng tarqalgan bo'lib, insonlar va jamiyatni birlashtirish uchun yangi diniy e'tiqod zarurati mavjud edi. Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar qachon paydo bo'lganligi haqida muayyan tarixiy ma'lumotlar yo'q. Biroq, ba'zi tarixchilarning xabar berishlariga qaraganda, Arabistonga birinchi bo'lib sanam keltirgan va unga ibodat qilishni tarqatgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi edi. U Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Shomda esa butparaslik, turli sanamlarga sig'inish odatlari avvalroq shakllangan edi. Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Makka Arabistonning diniy markaziga aylangach, u Yerdagi Ka'ba sanamlar to'plangan joyga aylanib qoldi. Islom arafasida arablar orasida butparastlik shunchalik avjida ediki, hatto har xonadonning o'z sanami bor edi, deyish mumkin. Sanamlar bilan bog'liq urf-odat va marosimlar keng tarqalgan edi.

Shuningdek, Arabiston yarim orolida yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqalgan edi. Xristianlar missionerlari bu yerda keng targ'ibotchilik ishlarini olib borar, ularning bu o'lkaga qachon kelganliklari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas.


Islom dini ta'limoti. Islom ta'limoti bo'yicha barcha payg'ambarlar yagona Allohga iymon keltirishga chaqirganlar

va bu ularning eng asosiy vazifasi hisoblangan.

Musulmonlar islom ta'limotini Muhammad payg'ambar (a.s.)dan o'rganganlar. Vaqt o'tishi bilan islom ta'limotini faqat shu dinni yaxshi bilgan olimlar tushuntira boshladilar. Bu ta'limotni tushuntiruvchi fan paydo bo'ldi. Mazkur fan turli davrlarda o'ziga xos "al-fiqh al-akbar", "tavhid", "aqida", "kalom", "usul ad-din" kabi nomlar bilan ataldi. Uning nomlari turlicha bo'lsada, bir mavzuni, ya'ni aqidani o'rganishga qaratilgan.

Islom ta'limotiga ko'ra insonning ikki dunyodagi saodati aynan aqidasiga bog'liq. Agar musulmonning aqidasisi pok bo'lsa, yo'li to'g'ri bo'ladi, qilgan barcha amallari qabul bo'ladi va bandalik bilan sodir etgan ba'zi gunohlari afv etiladi. Biroq kishi aqidasi sof bo'lmasa, buzuq bo'lsa, yo'li noto'g'ri bo'ladi, qilgan amallari behuda ketadi va oxiratda jahannam ahlidan bo'ladi deb hisoblanadi. Aqida masalasi o'ta muhim bo'lganidan eng birinchi payg'ambardan boshlab, oxirgi Muhammad payg'ambar (a.s.)gacha bu masalani Allohning o'zi ko'rsatib bergan. Shuning uchun aqidaviy qarashlarning asosi Qur'onda berilgan va hadislardagi ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan.

Islom besh asosga qurilgan:



Islomdininingpayg'ambari-Muhammadalayhissalom.

Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib Arabiston tarixida "Fil voQeasi" nomi bilan mashhur jangdan 50 kun keyin tavallud topdilar. Misrlik munajjim Mahmud podshoning aniqlashicha, Payg'ambarimizning tavallud topishlari milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to'g'ri keladi. Otalari Abdulloh Muhammad alayhissalom tug'ilmaslaridan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasrib (Madina)da vafot etdilar va o'sha Yerga dafn etildilar. Onalarining ismi Omina bint Vahb bo'lib, Banu Zuhra urug'idan edi.

Payg'ambar alayhissalom 5 yoshlarida onalari Omina bilan birgalikda Yasribga otalari qabrini ziyorat qilish uchun boradilar. Bu safardan qaytib kelayotganlarida Abvo degan joyda onalari vafot etdi. Makkaga otalarining cho'risi Ummu Ayman hamrohligida yetib keldilar. Shundan so'ng 8 yoshgacha bobolari Abdulmuttalib qo'lida tarbiyalandilar. Bobolari yosh Muhammadni juda yaxshi ko'rar edi. Shuning uchun o'zi xastalanib, o'lim to'shagida yotgan paytda o'g'illari orasida eng sahovatli va mehribon bo'lgan Abu Tolibni chaqirib Muhammadni o'z qaramog'iga olishni buyuradi va vafot etgach amakilari Abu Tolib otasining vasiyatiga binoan Muhammad alayhissalomni o'z qarmog'iga oldi.

Yoshlari 12 ga Yetganda amakilari Shomga safarga otlandi. Eng yaqin kishisidan ayrilib qolish Muhammad alayhissalomga qattiq ta'sir qilib ma'yuslanib qoldilar. Buni ko'rib Abu Tolib bolani birga olib ketishga jazm qildi. Shom yo'lida joylashgan Busro nomli mavzeda karvon to'xtadi. Yahudiylarning olimlaridan Buhayro ismli bir rohib uzoqdan karvonning kelishini kuzatib turar edi. Ko'rdiki, karvon bilan birga bir bulut ham kelayapti. Karvon bir daraxt ostiga to'xtadi. Bulut ham o'sha daraxt tepasiga qo'ndi. Buhayro darhol bir ziyofat tayyorladi. Abu Tolibni sheriklari bilan ibodatxonaga taklif qildi. Muhammad alayhissalom ahvollarini bilib olish uchun bir necha savol so'radi. Olgan javoblaridan hayratlangan Buhayro

Muhammad alayhissalomning ikki kuraklari o'rtasidagi payg'ambarlik muhri (xotam an-nubuvvat)ni ochib ko'rdi. Shundan so'ng Abu Tolibga Muhammad alayhissalomning porloq kelajak egasi ekanligini, bo'lajak payg'ambar ekanligini bashorat qildi va uni ehtiyot qilishni uqtirdi.

25 yoshga to'lganlarida Banu Asad urug'idan bo'lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o'zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so'radi. Bu savdodan katta foyda tushdi. Muhammad alayhissalomning to'g'riso'z, halol, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ko'rgan Xadicha yoshlari ancha katta bo'lishiga qaramay, taomilga zid ravishda unga sovchi qo'ydi. Amakilari Abu Tolib, Xadicha tomonidan amakivachchasi Varaqa rozilik berib nikoh o'qildi.

Muhammad alayhissalomning shu xotinlari u kishining Yetti farzandlaridan (Moriyadan tug'ilgan Ibrohimdan boshqa) 6 tasi (Zaynab, Ummu Kulsum, Ruqiya, Fotima, Qosim, Abdullo) ning onasi bo'lgan.

35 yoshga kirganlarida makkaliklar Ka'bani ta'mir etishadi. Uni qayta qurish jarayonida muqaddas sanalgan "Hajar al-asvad" (qora tosh)ni kim o'rniga qo'yadi degan masalada tortishib qoladilar. Shunda ulardan biri – "ertalab Safo eshigidan kim birinchi kirib kelsa o'sha bizga hakamlilik qilsin" deydi. Ertalab Safo tarafidan Muhammad (a.s.) kirib keladilar. Uni ko'rgan olamon "Muhammad al-Amin (ishonchli Muhammad) keldi" deb xursand bo'lishadi. U zot choponlarini yechib, "qora tosh"ni qo'yib, barcha qabila boshliqlarini choponni baravariga ko'tarishga buyuradilar va o'zlari Qoratoshni joyiga qo'yadilar. Muhammad alayhissalom o'zlarining zukkoliklari bilan qabilalar o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan nizoning oldini oldilar.

Islomning asosiy manbasi bo'lmish Qur'oni karim VII asrda nozil bo'lgan bo'lsa-da, Islom ta'limotiga ko'ra, bu din, Yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, butun bashariyatga nozil qilingan. Muhammad alayhissalom avvalgi payg'ambarlar ishini davom

ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar – Nabiy va Rasul deb tan olinadi.



Imon so'zining lug'aviy ma'nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo'lib, istilohda esa "La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh" ("Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad uning payg'ambari") kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Imonning Yetti sharti bor: Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya'ni Allohning barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish. Farishtalarning borligiga imon keltirish.

Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish va hokazo. Quyidagi jadvalga qarang: Alloh taolo insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan.


Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Qur'oni Karim. Alloh tarafidan payg'ambarlariga kitoblar tushurilganiga imon keltirish. Buni "(Ularning) har biri Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg'ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi" (Baqara, 285) oyatidan bilish mumkin.

Shu bilan birga bu kitoblarga umumiy imon keltiriladi. Muhammad payg'ambarga (a.s.) Qur'on nozil qilinganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitob tushurilgan. Ulardan manbalarda zikr qilib o'tilganlari quyidagilardir: Ibrohim


payg'ambarga "Sahifalar", bu haqda Qur'onda "Ibrohim va Muso sahifalarida (ham) bordir" (A'lo, 19) deyilgan. Bir hadisda "Abu Zar: Ey, Allohning Rasuli, Ibrohimning sahifalarida nima bo'lgan?" - deb savol berganda, Payg'ambar (a.s.): "Barchasi zarbulmasal bo'lgan..." dedilar. Bu hadisdan uning mavzusi qanday bo'lganini bilish mumkin. Olimlar uni ma'lum varaqlardan iborat ekani va kitob holiga etmaganini aytganlar.

Keyingisi "Tavrot" bo'lib, u Muso payg'ambarga, "Zabur" Dovud payg'ambarga berilgan. Iso payg'ambarga esa "Injil" nozil qilingan. Islom ta'limotiga ko'ra Muhammad payg'ambarga (a.s.) "Qur'on" nozil qilingan. Shuningdek, biror payg'ambarga biror kitob nozil qilinsa, u o'zidan avvalgi shariatni o'zgartirgan yoki butunlay yangi qarashlarni olib kelgan deb hisoblangan. Qur'oni karim - Alloh taolo tarafidan 23 yil mobaynida Payg'ambar Muhammad alayhissalomga oyat-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir. Bu kitob Islom dinining muqaddas manbasi hisoblanadi.

"Qur'on" - arabcha "qara'a" (o'qimoq) fe'lidan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto, 6666 tagacha belgilangan.



Muhammad alayhissalom hayotlik chog'larida yana vahy tushib qolar degan umidda Qur'on jamlanib, kitob holiga keltirilmagan edi. Payg'ambar vafotlaridan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg'ambardan so'ng musulmonlarga Abu Bakr (572-634) boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632-634) mu'minlar va murtad(dindan qaytgan)lar o'rtasida shiddatli janglar bo'lib o'tdi. Ushbu janglarda Qur'onni to'liq yod olgan qorilar ko'plab shahid bo'ldilar. Shunda Umar ibn al-Xattob (585-644) Abu Bakrga "barcha qorilar shu zaylda o'lib ketaversa, Qur'on nuqsonli bo'lib qolishi mumkin, shu sababli uni jamlab kitob holiga keltirish zarur" degan maslahatini beradi. Avvaliga Abu Bakr ikkilanib turadi, chunki bu ish Payg'ambar hayotlik paytlarida qilinmagan edi. Keyinroq Abu Bakr ham Qur'onni kitob shakliga keltirib qo'yish zarurligini anglab Yetdi va Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib bu ishni unga topshiradi.



Xalifa Usmon ibn Affon topshirig'iga binoan Zayd ibn Sobit barcha Qur'on suralarini yig'ib, taqqoslab chiqib qaytadan Qur'on matnini jamlagan. Qur'onning birinchi rasmiy nusxasi 651 yil taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib yana uchta, ba'zi manbalarga ko'ra Yettita nusxa ko'chirtirilib, yirik shaharlardan - Basra, Damashq, Kufaga jo'natiladi. "Imon" deb nomlangan asl


nusxa esa Madinada, xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko'chirilgan nusxalar "Mushafi Usmon" deb ataldi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To'qumboyev RSFSR Xalk Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur'oni o'z egalariga, ya'ni musulmonlarning O'lka s'ezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR XKS tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur'on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podsho kutubxonasining "nodir qo'lyozmalar" bo'limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U.To'qumboyev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo'natiladi. Qur'on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo'mi Usmon Qur'onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvda olib kelinadi. 1923 yil 18 avgustda Toshkentdan Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xoja Ahror jome' masjidiga topshiriladi.

Hozirgi kunda ushbu Mushaf Toshkentdagi Hazrati Imom majmuasidagi Mo'yi Muborak madrasasida saqlanadi.

Hadisi sharif. Hadis – Muhammad alayhissalomning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, taqirlari (ko'rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. "Hadis" so'zining lug'aviy– so'z; xabar; hikoya; yangi kabi ma'nolari bo'lib, istelohta esa – "al-hadis an-Nabaviy" ya'ni, Payg'ambar so'zlaridir.



Hadislar ilk davrda faqat og'zaki ravishda avloddan-avlodga

uzatilar edi. Yozma ravishda hadislarini to'plamaslik haqidagi Payg'ambarning ko'rsatmalari asosan ilk islom davriga taalluqli edi. Payg'ambar a.s. o'z so'zlarini yozib olishdan sahobalarni qaytarishlariga sabab hadislarining Qur'on oyatlariga aralashib ketmasligi uchun edi.

Hadislar orasida Payg'ambar nomidan aytilgan to'qima so'zlar ko'p uchraydi. Ularda Arabistondan uzoqdagi fath qilinishi lozim bo'lgan va hatto Payg'ambar davrida hali asos solinmagan shaharlar haqida so'z boradi. Ilk islom davrida vujudga kelgan xorijiy, murji'iy, qadariy, jahmiy kabi oqim va guruhlar haqida gapiriladi. Umaviylar (661-750) va Abbosiylarning (749-1258) benuqson xalifalıkları zikr qilinadi. Bunday hadislarini Payg'ambardan kelgan deb qabul qilish juda qiyin.

XI-XII asrlarga kelib Movarounnahrda hadis sohasida ancha olg'a siljishlar bo'ldi. Bu davrda yashagan olimlar faqatgina ma'lum bir chegaralangan doira ijod qilish bilan kifoyalanmay, balki imkon qadar ilmning ko'proq qirralariga ega bo'lishga intilganlar. Shunga ko'ra biror-bir olim masalan, faqatgina mufassir yoki faqihning o'zi emas, balki bir vaqtning o'zida muhaddis ham bo'lgan. Chunki bu davrda, yuqorida aytib o'tilgandek, diniy ixtiloflar kuchaygan edi. Shunga ko'ra ulamolar bu ixtiloflarni oldini olish, bartaraf etish uchun har taraflama kuchli bilimga ega bo'lishlari lozim edi.

Hadis sohasida keyinchalik *kompilyativ* (ko'chirma) ishlar ham amalga oshirildi. Ular mazkur olti to'plam darajasiga ko'tarilmasada, asosiy manba sifatida foydalanilardi. Ulardan ad-Dorimiy, ad-Doraqutniy va al-Bayhaqiylarning asarlarini zikr etish mumkin. Hadis kitoblariga sharhlar yozildi.

Hadislar sahih (sog'lom), hasan (yaxshi), ta'if (zaif) va saqim (kasal) turlarga ajratildi.

Mustaqillikdan keyin Vatanimizning ilmiy, madaniy, ma'naviy va diniy tarixini chuqur tadqiq etishga keng yo'l ochilganidan so'ng mamlakatimizda hadislarini o'rganish

bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. "Axloq-odobga oid hadis namunalari", "al-Adab al-mufrad", "Ming bir hadis", IV jildan iborat "Hadis" nomli "al-Jomi' as-sahih"ning tarjimasi hadis to'plamlari sifatida nashr etildi. Yurtimiz tadqiqotchilimlari tomonidan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Muslim kabi bir qator muhaddislar hayoti, ilmiy faoliyatlarini yoritib berish yo'lida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Hadislardagi da'vat, pand-nasihatlarining hozirgi zamon bilan hamohang bo'lib, ayniqsa mamlakatimizdagi turli millatlar orasida noxush voqealar yuz berib turgan davr taqozosiga muvofiq keladigan odamlarni do'stlik hamkorlikka chaqiriqlardir. Hadislarning birida "Salomlashib yuringlar, odamlarga taom yediringlar... uzaro birodar bo'linglar" deyilgan. Ularning yana birida, "Mo'minlar uzaro do'stlashishda, rahm-shafqatda va mehru-oqibatda go'yoki bir tananing a'zolaridir. Uning biror a'zosi og'risa, ungaqo'shilib qolgan a'zolari ham bedorlik va og'riq bilan alam chekadi".


Hadislarda xayriya, ya'ni saxovat, muruvvat, shafqat, hadya, xayru sadaqa kabi masalalarga juda ko'p o'rin va e'tibor berilgan. Ularning birida "sadaqa va xayru ehson qiltsh yuli bilan rizqu nasibalaringizga baraka tilanglar", deyilsa, ikkinchisida, "Tangri g'am-tashvishli odamlarga yordam beradiganlarni do'st tutadi" deb ta'kidlanadi; uchinchisida "ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring" deyiladi. Yana birida "bir-biringizga ehson qilinglar, chunki ehson muhabbatni oshiradi va dildagi g'amliklarni yo'qotadi", degan da'vatlar, hikmatlar olg'a suriladi.

Shuni e'tirof etishimiz kerakki, dingina emas, balki ilm-fanning birgina o'ziyoq insonni yuksak fazilatli qilishga qodir emas. Buning uchun ijtimoiy tuzum, moddiy omil, iqtisodiy zamin, ahloqiy tarbiya, boy ma'naviy hayot vahokazolar mavjud bo'lishi kerak.

Tasavvuf (so'fiylik) - musulmonlarni halollikka, poklikka,

tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o'zining halol mehnati bilan yashashga, o'zgalarning kuchidan foydalanmaslikka da'vat etuvchi ta'limot.

Bu ta'limot dastlab VIII asr o'rtalarida Iroqda yuzaga kelgan. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Turkiston va Movarounnahrning turli o'lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo'ladi. Turkistonda XII asrda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubraviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi. Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf Yassaviya tariqati bo'lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur "Hikmat" asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali Yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog'atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina Yetib boradi. Xullas, Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.



Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri Najmiddin Kubro (1145-1221) edi. U Xorazmda "Kubraviya" tariqatiga asos soladi. Yassaviy tariqatidan farqli o'laroq, Kubraviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot

yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubraviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mutsaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi.

Tasavvuf XIV asrda naqshbandiya tariqatida yanada rivoj topadi. Unga Bahouddin Naqshband asos soladi. U 1318 yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida o'qish va ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan.

U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shadilar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Islom dinining asosiy aqidasi nimbardan iborat?
2. Muhammad alayis-salom qaysi davrda va qayerda dunyoga keldilar?
3. Birinchi vahiy qachon nozil bo'ldi?
4. Qur'on so'zining ma'nosi nima?
5. Hadis haqida ma'lumot bering?
6. Tasavvufning asl mohiyati nimada?

Uyga vazifa: Mavzuni rejalar bo'yicha konspekt qilish va tayanch iboralar bilan ishlash, topshiriqlarni bajaring.

Jadvalni to'ldiring:

Nº	Savollar	Javoblar
1	Avesto, Tavrot, Injil, Qur'oni karimda insoniyatning yaratilishi haqida ma'lumot bering.	

2	Islom so'zining lug'aviy ma'nosi nima?	
3	Islom dinidagi asosiy mazhablar?	
4	Islom dini keng tarqalgan mamlakatlar to'g'risida ma'lumot bering?	
5	Tasavvuf ta'limoti to'g'risida ma'lumot bering.	
6	Mustaqillik yillarida mamlakatimizda diniy sohada amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida ma'lumot bering.	

Tayanch iboralarini izohlang

- | | |
|-----------------|--|
| 1 Islom dini | 6 Farz |
| 2 Musulmon | 7 Hadis |
| 3 Qur'oni Karim | 8 Haj |
| 4 Shia mazhabi | 9 Tasavvuf |
| 5 Sunna mazhabi | 10 Naqshbandiya, Kubroviya tariqatlari |

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar.

1. "Islom dini va ta'limoti" mavzusi bo'yicha berilgan qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishing.
2. Jahon dinlari entsiklopediyasining Islom bo'limi bilan tanishing.
3. "Islom dinida mazhablar va oqimlar" mavzusi bo'yicha referat tayyorlang.

Jadvalni to'ldiring.


Islom dinidagi asosiy amallar	Islom dinidagi oqimlar va mazhablar	Islom dini keng tarqalgan mam-lakatlar
-------------------------------	-------------------------------------	--

Uyga vazifa: "Debat" strategiyasi metodini o'tkazishga tayorlanib kelish topshiriladi

"Debat" strategiyasi

"Debat" (fransuzcha "debattere" so'zidan olingan bo'lib, "debats" – "bahslashmoq") texnologiyasi yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv mashg'ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi:



JA'HON DINLARI: BUDDAVAIYLIK, XRISTIANLIK VA ISLOM MAVZULARI BO'YICHA JORIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Din nima? Dinning tarifi.
2. Din ijtimoiy xodisa sifatida.
3. Dinning jamiyatdagi funksiyalari.
4. Din shakllari: ibtidoiy davr, millatlar shakllangan davr. Jahon xalqlari orasidagi mavqei.
5. Turli shakllarga xos bo'lgan dinlar. Ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari.
6. Animizm va totemizm nima?
7. Magiya va shovanizm. Ularning o'zaro yaqin va farqli tomonlari.
8. Milliy dinlarning yana boshqa millatlar etiqodiga aylanishi va ulardagi farq jixatlar.
9. Din va milliy urf-odatlar. Ularning o'zaro ta'siri.
10. Milliy din va milliy davlat dini. Bu tushunchalarning ma'naviy va siyosiy mohiyati.
11. Buddaviylik dinida ilgari surilgan asosiy tushunchalar
12. Buddaviylikning vujudga kelishi, ta'limoti.
13. Buddaviylik ta'limotida hayotning mohiyati.
14. Dinning ijtimoiy funksiyalari
15. Milliy dinlarning mafkuraviy ta'limotlari
16. Xristianlikning vujudga kelishi, uning ta'limoti.
17. Xristianlikning Iso Masih haqidagi, uning islom dini ta'limotidan farqi.
18. Xristianlikdagi bosh kitob va ularda bayon etilgan asosiy goyalar.
19. Xristianlikning oqimlari. Ular ta'limotidagi farqli jihatlar.
20. Ilk Islom davrida arablar. Ulardagi urf-odatlar va an'analar. Islom dinining vujudga kelishi. Muhammad (SAV) faoliyati.
21. Islom dinining vujudga kelgan davridagi tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlari.

22. Islom ta'limoti, uning marosim va bayramlari.
23. Islom dinidagi asosiy yo'nalish va mazhablari.
24. Islom dini tarixida xalifalar davri.
25. Xalifalar, xususan xalifa Usmon davrida ilmiy merosga muhabbat.
26. Joxillik va ma'rifat. Uning musulmonlar faoliyatida namoyon bo'lishi.
27. Muqaddaslashtirilgan islomiy ob'ektlar va ularning xalq ma'naviyatida tutgan o'rni.
28. Mamlakatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosati. Islom ulamolari ma'naviy merosiga e'tiborining kuchayishi.
29. Ziyoratgohlarning ta'lim-tarbiya ishidagi ahamiyati.
30. Mamlakatimizdagi islom ta'limotining keng va chukur o'rganishning sabablari. Bu sohadagi amaliy tadbirlar.
31. Din ta'limotidan foydalanish maqsadlarining turli-tumanligi. Iymon talablari.
32. Iymon tushunchasi. Shariat.
33. Hadisi Sharif.
34. Islom dini shariati va tasavvuf ilmi.
35. Sufiylikda tariqatlari: Yassaviylik, Kubraviylik, Naqshbandiya.
36. Islom va shariat manbalari.
37. Qur'on kitob shakliga keltirilishi.
38. Qur'on islom dinining muqaddas kitobi
39. Usmon muxxafi. Undagi suralar soni.
40. Islom ta'limotidagi mafkuraviy ta'limotlar
41. Xristianlikdagi mafkura.
42. Milliy istiqlol mafkurasini va din.
43. Tabiatxodisasi va predmetlari muqaddaslashtirilishining ijtimoiy hayotidagi salbiy va ijobiy tomonlari.
44. Vijdon erkinligining Konstitutsiyada kafolatlanishi.

JAHON DINLARI: BUDDAVAIYLIK, XRISTIANLIK VA ISLOM MAVZULARI BO'YICHA TEST SAVOLLARI

VARIANT 1

1. Milliy davlat dinlari qaysilar?
 - A) Daosizm, xinduzim, sikkizm, sintoizm, iudaizm, konfutsiychilik.
 - B) Zardushtiylik, islom, konfutsiychilik, daosizm, sintoizm.
 - C) Iudaizm, zoroastrizm, xristianlik
 - D) Totemizim, Animizm, Fetishizm, Shomonizm
2. Iudaizm qanday din?
 - A) Yevropaliklar dini
 - B) Jahon dini
 - C) Osiyo dini
 - D) Milliy din
3. Sintoizm qanday din?
 - A) Xitoy milliy dini
 - B) Xindlar milliy dini
 - C) Yapon milliy dini
 - D) Eron milliy dini
4. Yahudiylilik dini qachon va qaerda vujudga kelgan?
 - A) 2600 yil muqaddam Xindistonda
 - B) Eramizdan avvalgi 2000 yillar oxiri Falastinda
 - C) IV-III asrlarda Xitoyda
 - D) Eramizning boshida Falastinda
5. Yahudiylilik dinining muqaddas kitoblari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) Tavrot, Tolmud
 - B) Tavrot, Injil
 - C) Tavrot, Avesto
 - D) Tavrot, Veda
6. Braxmanlik dini ta'limoti nimaga asoslangan?
 - A) Messiya-xoloskorning kelishi haqida.
 - B) Kastalarga asoslangan ta'limot

C)Ta'limot "Dao" asosida
D)Olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan ta'limot

7. Yahudiylik ta'limotiga ko'ra olamni yaratuvchi yagona xudo qanday nomlanadi?

- A)Iso
- B)Sudxarta
- C)Vishnu
- D)Yaxve

8. Buddaviylikning muqaddas kitobi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A)Tavrot
- B)Avesto
- C)Injil
- D)Tripitaka

9. Braxmanlik kastalari nechta kastadan iborat.

- A)6 ta
- B)8 ta
- C)4 ta
- D)3 ta

10. Yaxudiylarni ruxoniysi kim deb ataladi?

- A)Monax
- B)Pop
- C)Ravvin
- D)Papa

11. Daosizm qachon va qaerda paydo bo'lgan

- A)Milloddan avvalgi II-I asr Xitoyda
- B)Milloddan avvalgi III-II asr Yaponiyada
- C)Milloddan avvalgi IV-III asr Xitoyda
- D)Milloddan avvalgi V-IV asr Yaponiyada

12. Daosizm asoschisi kim?

- A)Lao-Szi
- B)Konfuttsiy
- C)Zardusht

D)Budda

13. "Dao" so'zining ma'nosi nima?

- A)Hayot
- B)Yo'l
- C)Tirilish
- D)Nurlangan

14. Daosizmning asosiy manbasi qaysi?

- A)Dao-Detszin
- B)Dao-Si
- C)Dao-TSzi
- D)Dao - Yun

15. "Sansara" ta'limoti qaysi dinga tegishli

- A)Sikxizm, daosizm
- B)Totemizm, animizm
- C)Konfutsiychilik
- D)Xinduizm, buddizm

16. Buddizmdagi asosiy yo'nalishlar

- A)Xinayana, maxayana, lamaizm vajirayana
- B)Xinayana, maxayana, neobuddizm, metobuddizm
- C)Tontrizm, sansara, karma, nimayana
- D)Moniyzm, baptizm, metobuddizm

17. Yaxudiylarni diaspora davri nechanchi yilda sodir bo'lgan?

- A)Milloddan avvalgi III asrda
- B)Milloddan avvalgi VI asrda
- C)Milloddan avvalgi II asrda
- D)Milloddan avvalgi I asrda

18. Yahve xudosi Muso payg'ambarga, Tur tog'ida nechta nasihat yuborgan

- A)12 ta
- B)10 ta
- C)15 ta
- D)18 ta

19. Massonizm va Sionizm qaysi din oqimlari

- A)Yaxudiylik
 - B)Xindullik
 - C)Xristianlik
 - D)Braxmanlik
20. Saduqiylar kimlar?

- A)Yaxudiylar
- B)Xristianlar
- C)Musulmonlar
- D)Xindlar

VARIANT 2

1. Yahudiylikning muqaddas kuni qaysi?
 - A)Dushanba, Seshanba
 - B)Payshanba
 - C)Shanba
 - D)Juma
2. Yaxudiylik dini asoschisi kim?
 - A)Iso payg'ambar
 - B)Yoqub payg'ambar
 - C)Muso payg'ambar
 - D)Ibroxim payg'ambar
3. Konfutsiyning asl ismi kim?
 - A)Lao-Szi
 - B)Kun-Szi
 - C)Kon-Szi
 - D)Kunf-Szi
4. Talmudda nechta vasiyat va nechta taqiq bayon etilgan?
 - A)248 ta vasiyat 365 taqiq
 - B)346 ta vasiyat 375 taqiq
 - C)248 ta vasiyat 700 taqiq
 - D)240 ta vasiyat 365 taqiq
5. "Messiya" - so'zining ma'nosi nima?
 - A)Qo'shiqchi
 - B)Xaloskor
 - C)Elchi

- D)Payg'ambar
6. Xinduizmdagi asosiy 3 ta xudo qaysilar?

- A)Braxma, Mitra, Varuna
- B)Diaus, Adita, Indra
- C)Shiva, Vishnu, Braxma
- D)Krishna, SHiva, Varuna

7. Yaxudiylar cherkovi nima deb ataladi?

- A)Xram
- B)Monastir
- C)Mechet
- D)Sinagoga

8. Buddaviylikning muqaddas manbai "Tripitaka" so'zini ma'nosi nima?

- A)Uch odam
- B)Uch dunyo
- C)Uch daraxt
- D)Uch savat

9. Braxma ya'ni "oriylar" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A)Oqsuyak
- B)Buyuk
- C)Aslzoda
- D)Tabbaruk

10. "Budda" so'zini lug'aviy ma'nosi nima?

- A)Nurlangan, ravshan
- B)Yorug', nurafshon
- C)Nurli, yorug'
- D)Nurafshon, yorqin

11. Konfutsiyning yashagan yillari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A)551-479 yil milloddan avvalgi
- B)530-479 yil milloddan avvalgi
- C)551-610 yil milloddan avvalgi
- D)537-420 yil milloddan avvalgi

12. Xinduzm qachon vujudga kelgan?

- A)Eramizdan avvalgi VI asrda
- B)Eramizdan avvalgi V asrda
- C)Eramizdan avvalgi VII asrda
- D)Eramizdan avvalgi IV asrda

13. Veda dinlari qaysilar

- A)Braxmanlik, xinduilik, sikhizm, jaynizm
- B)Zarostriзм, totemizm, shomonizm
- C)Sintoizm, anemizm
- D)Feteshizm, braxmanlik, iudaizm

14. Tavrotning birinchi qismi nima deb ataladi?

- A)Ketubim
- B)Musoning besh kitobi
- C)Netilm
- D)Takvin-Ibtido.

15. Musoning besh kitobi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.

A)Borliq yoki Ibtido, CHiqish, Levit, Sonlar va Ikkinchi qonun.

B)Borliq yoki Ibtido, injil, ketubim, Levit, Sonlar.

C) CHiqish, Levit, Sonlar Bibliya, netiim.

D)Injil, Levit, Sonlar, ketubim va Ikkinchi qonun.

16. Tavrot nechta qismdan iborat?

- A)5 qism
- B)4 qism
- C)3 qism
- D)2 qism.

17. Buddizmning asoschisi kim?

- A)Lao- TSzi
- B)Ramayana
- C)Krishna
- D)Sidxarta Gautama.

18. Kshatriy, shudra, vayshiy, Braxman- bu kastalar qaysi veda dinlariga tegishli?

A)Sikhizm.

- B)Buddizm
- C)Braxmanlik.
- D)Jaynizm.

19. Braxmanlar qaysi tilda muloqot qilishgan?

- A)Lotin.
- B)Hind.
- C)Urdu.
- D)Sanskrit.

20. Veda dinlarini nechta asosiy manbalari bor?

- A)5ta
- B)3ta
- C)4ta
- D)2ta.

DINSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BO'YICHA TAVSIYALAR

Dinshunoslik bo'yicha ma'ruza fanning ilmiy-nazariy asoslarini tizimlashtirilgan holda mazmuni yoritiladi. Ma'ruza keng axborotlar ko'lamida asosiy e'tiborni eng muhim va murakkab masalalarga jamlashga yordam beradi. Ma'ruzalar talabalarning faoliyatini yo'naltirishga, tarixiy manbalar bilan ishlashga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish va anglab yetishga, mustaqil tarzda tahlil etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Dinshunoslik fani seminar mashg'ulotlari ma'ruza mashg'ulotida olingan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashni, adabiyotlar bilan mustaqil ishlash vaqtida izlanuvchanlik, materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish kabi ko'nikmalarini hosil qilishni maqsad qiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, mustaqil ma'lumotlarni topish va tahrir etish, ilmiy asoslash, shu bilan birga o'z fikrini aniq va ravshan ifoda etishga chorlaydigan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilish maqsadga muvofiq.

Seminar mashg'ulotlarida SVOT tahlil, Ekspress testlar, Blits-so'rov, Klaster, Zinama-zina, Bumerang, Veyn-diagrammasi, BBB, T-sxema, Keys-stadi, Aqliy hujum, Baliq skeleti kabi uslublardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dinshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash. Dinshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy vositalar – axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatining oshishiga ijobi ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mavzu yuzasidan taqdimotlar, qiyosiy tahlillar keltirilgan diagramma va jadvallardan, shuningdek mavzuga doir film va lavhalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayonda kursining maqsadi, tuzilmasi, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan qolda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida

o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni, kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalaridan foydalanish lozim.

“DINSHUNOSLIK” FANINI O'QITISH JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK USLUB VA TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	kuchli tomoni
W – (weakness)	zaif, kuchsiz tomoni
O – (opportunity)	imkoniyatlari
T – (threat)	to'siqlar

Namuna: Din va diniy ta'limotlarning inson va jamiyatdagi roli va ahamiyati uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalda tushiring.

S	Din va diniy ta'limotlar	Inson va jamiyatni yagona g'oya asosida birlashtirishga, insonlarda ishonch va e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi
W	Din va diniy ta'limotlar	Turli xil diniy nizolarning vujudga kelishiga zamin yaratadi.
O	Din va diniy ta'limotlar	Insonlarni yagona ta'limotga birlashtiradi, din-insonni yaxshilikka chorlovchi, gunohdan uzoq yashash, yomonlikdan yiroq bo'lishga chorlaydi.
T	to'siqlar (tashqi)	Turli diniy oqimlar ta'siri ostida diniy ekstremizm va fundamentalizm g'oyalarining vujudga kelishi.

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH

Guruhlarda ishlash – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi, topshiriq – natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

Guruhli treningda qo'llaniladigan asosiy uslublardan biri kichik guruhlarda ishni tashkil qilishdir. Ushbu uslubning psixologik jihatdan manzurligi, notanish masalalarni ko'rib chiqib, qaror qabul qilishda har bir ishtirokchi, guruh ishining yaxshi natijasi uchun ma'suliyatni sezgan holda ishga kirishadilar.

Shu uslubning ustunligi nimada? Kichik guruhlarda ishlaganda kamgap ishtirokchilar o'zlarini yaxshiroq his qiladilar. Aynan shunday odamlar uchun bu guruhlarda ishlash, o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishda juda qo'l keladi va kelajakda boshqa muhokamalarda o'z fikrlarini bildirib, ular aktiv ishtirok etadilar. Shu uslub yordamida uyatchan va kamgap ishtirokchilar ko'pchilik fikriga qo'shilmasdan o'z fikrlarini or'taga tashlashga harakat qiladilar.

Guruhlarning eng qulay soni

Guruhlarda ishlash tajribasi quyidagi natijalarni berdi:

3 kishidan iborat guruh - eng kichik guruh bo'lib, g'oyalarni tanlash va rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralaydi;

4 kishidan iborat guruh — yetarli darajadagi muvaffaqiyatli guruh;

5 va 6 kishidan iborat guruh - eng yaxshi va samarali natijaga erishuvchi guruh;

7 kishidan iborat guruh - yetarli darajada muvaffaqiyatli, lekin kattaroq bo'lgan guruh;

8 va 9 kishidan tashkil topgan guruh - guruh kichik guruhlariga bo'lina boshlaydi, yoki qarama-qarshi fikrli guruhlar tashkil topadi. Bunday vaziyatda qoniqarli natijaga erishish

mumkin, lekin bu narsa ko'p vaqt talab qiladi.

10 va undan ortiq kishidan tashkil topgan guruh - qoniqarsiz guruh. Bu sonli guruhlarda ishtirokchilar orasida ziddiyatlar hosil bo'lib, guruh ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

“Muammoli ta'lim” texnologiyasi

Muammoli ta'lim bu – talabaga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali xal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va talabalarining hamkorlikdagi harakati bo'lib, u talaba shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim – talabalarining erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta'sir etishdir. Bunda talaba diqqat bilan tinglashi, mustaqil fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrni bayon qila olishi kerak.

Agar talaba yangi mavzuni ta'sirli bayon qilib, ko'rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim talabalar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni samarali bo'ldi yoki faol bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta'lim usuli an'anaviy ta'lim berishdir.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashgulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchini innovatsion ijodiy yondashuvining ahamiyati katta.

Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoli

tashkil kilish va muammoni o'rganish usulini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlabgina qolmay, balki talabalar faoliyatida mustaqillikni ham ta'minlashi zarur.

Ikkinchi qiyinchilik esa muammoli ta'limni ko'rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya'ni o'qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha talabalarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh talabalariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarni yetishmasligidan kelib chiqadi. Uchinchi qiyinchilik esa darsda talabalarni qiziqishini uyg'otish va uni uzluksiz rivojlantirib borishida ko'rinadi. Chunki talabalar diqqatini bir nuqtaga muntazam to'plashga o'qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli ta'lim haqidagi to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, bu ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko'rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qo'yilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'lik. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki u talabalar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va talabalarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi. Muammoli vaziyatni yaratganda, o'qituvchi o'quvchilar o'z diqqatlarini nimalarga qaratishlari kerakligini aytishi maqsadga muvofiqdir.

LOYIHA TEXNOLOGIYASI

Loyihaviy ta'lim quyidagi dolzarb ta'lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

- ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlaydi;
- nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan boholash va

talabalarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi;

- kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

Loyiha (design - dizayn) - ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi.

Loyiha (projekt) - tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish - ("loyiha" so'zidan) - real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish - o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihaviy ta'lim - ta'lim modeli bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi.

O'quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari

O'quv loyihaviy faoliyat - bu qo'yilgan vazifaga erishish, ta'lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan biror-bir yakuniy ma'lumot ko'rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni yechish uchun ta'lim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlari majmuasi.

Tayyorgarlik bosqichi: loyihaga kirishish, loyiha

Kutiladigan natija: Talaba mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi.

"Brifing" metodi

"Brifing" – (ing.briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferensiya.

O'tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

"Portfolio"metodi

"Portfolio" – (ital. portfolio-portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) talimiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy talim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig'indisi sifatida aks etadi. Jumladan, talaba yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo'ladi. Oliy talim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Talimiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi.	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

TA'LIM VOSITALARI: TUSHUNCHA VA MAZMUNI

Ta'lim vositalari:

1. Ta'lim berishning texnik vositalari (TTV);
2. Yordamchi ta'lim vositalari (YOTV);
3. O'quv-uslubiy materiallar (O'UM).

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli Yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta'lim vositalari (YOTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarining mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar. Talabalarni o'quv - bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdagi *ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq:*

- 1) maqsadni belgilash;
- 2) asosiy bilim manbaiga;
- 3) ta'lim usuliga;
- 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga;
- 5) talabalarni o'quv imkoniyatlariga.

1.1. Ta'lim vositalarining tasnifi

1. **Ta'lim vositalari**
2. Yordamchi ta'lim vositalari
3. O'quv-uslubiy materiallar
4. Flipchart
5. Doska-stend
6. Doska-smart
7. Doska-bloknot
8. Grafoproyektor
9. Proyektor

10. Yozuv taxtasi
11. Chizma, sxema va boshq.
12. Namunalar
13. diagrammlar
14. Matnlar
15. Nazorat varog'i

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. (Янги тахрир).2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тугрисида"ги Қонуни (янги тахрири) // Ўзбекистоннинг янги қонунлари, Т. 19. Т., "Адолат", 1998.
3. Мўминов А. К., Диншунослик асосларини уқитиш ва ўрганишнинг ягона концепцияси. - Т., 1999.
4. Мўминов А., Йулдошхужаев Х., Раҳимжонов Д., Комилов М., Абдусатторов А., Орипов А. Диншунослик. Дарслик.-Т. "Меҳнат"-2004.
5. Oqilov S. Kalom ilmi. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 160 b.
6. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxiysi. – Toshkent: 2015. – 448 b.
7. Ochildiev O., Rahimjonov D., Muhamedov N. Va boshq. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
8. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 296 b.
9. Д. Муратов, М. Алимова, Ж. Каримов. ДИНШУНОСЛИК, дарслик. – Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019.
10. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма/ масъул муҳаррир: И. Усмонов. – Т.: ТИУ.
11. Дунё динлари тарихи. Ўқув қўлланма / Тузувчилар: С. Агзамходжаев, Д. Раҳимжонов, Н. Муҳамедов ва б. – Т.: ТошДШИ, 2011.
12. Ибрагимов Э.Ф. ва б. Жаҳон динлари тарихи : Мутахассислик фанидан ўқув -услугий қўлланма. – Т.: ТИУ, 2007.
13. Ислом ва ҳозирги замон / Ўқув қўлланма. Масъул муҳаррир Ш. Ёвқочев. – Т.: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2010.

GLOSSARIY

Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
avesta	авесто	avesto	– o'rtafors tilidan "apastak" ya'ni "asos" deb tarjima qilinadi. O'rta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din – zardushtiylikning muqaddas kitobi. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy axloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o'z ifodasini topgan.
ahriman	ахриман	axriman	– zardushtiylik dinida zulmat, ochlik, o'lim, gunoh va qabihliklar ilohi.
ahuramazda	ахурамазда	axuramazda	– zardushtiylik dinining bosh xudosi. Ezgulik xudosi, insonga doimo yaxshilikni ravo ko'ruvchi ilohiy kuch.
azarhurra	азархурра	azarxurra	– zardushtiylik dini ibodatxonalarida doimiy yonib turadigan muqaddas olov.
anahits	анахита	anaxita (nohid)	– zardushtiylikda yer-suv, hosildorlik, farovonlik ilohasi.
ardvisura	ардвисура	ardvisura	– zardushtiylarningdaryo va suv xudosi. Avestoning yasht kitobidagi 5-bob unga bag'ishlangan ("Ardvisura-yasht").

animism	анимизм	animizm	(lotincha "anima" – ruх, jon) – insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruxlarning mavjudligiga ishonish, go'yo ular kishilar, hayvonlarning hayotiga, tevarak atrofdagi olam, buyumlar va hodisalarga, ularning o'zgarishlariga ta'sir etib, ularni boshqaradi deb hisoblash.
ansors	ансары	ansorlar	– islom tarixida 622-yilda Makkadan Madinaga ko'chib kelgan musulmonlarga va ularning payg'ambari Muhammad sallallohu alayhi vasallamga yordam bergan islom dinini qabul qilgan madinalik avs va hazraj qabilalarining a'zolariga nisbatan qo'llaniladigan nom. Ansorlar Makkadan ko'chib kelgan muhojirlar bilan birga ilk musulmonlar jamoasini tashkil etishgan.
idealism	идеализм	idealizm	moddiylikni inkor etib, olamning asosida ruх yoki g'oyalar yotadi, dunyoning mavjudligi va rivojlanib borishida g'oyalar muhim rol o'ynaydi deb ta'kidlovchi falsafiy qarash va ta'limot. Idealizm materializmning aksidir.

materialism	материализм	materializm	(lotincha "materialis" – moddiy) – olam moddiy, ongimizga bog'liq bo'lmagan holda, obyektiv tarzda mavjud. Materiya birlamchi, hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy mavjud, tafakkur esa materiyaning xususiyatidir, olam va uning qonuniyatlarini bilish mumkin deb qarovchi falsafiy yo'nalish, oqim.
fetishism	фетишизм	fetishizm	(fransuzcha "fetiche" – but, sanam, tumor) – tabiatdagijonsiz predmetlarga sig'inish.
culture	культура	madaniyat	– jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritgan barcha moddiy va ma'naviy yutuqlarining majmuasidir.
magik	магия	magiya	(yunoncha "magiya" – sehrgarlik, afsungarlik) – ibtidoiy odamlarning diniy tasavvurlari majmuasi. Sehru-jodu, kuf-suflar orqali tabiat va hayotdagi yaxshilik va yovuzlik kuchlariga, shayotonu-iblislariga ta'sir ko'rsatish amallari.
monotheizm	монотеизм	monoteizm	(yunoncha "mono" – yakka, bitta, "theos" – xudo) – yakkaxudolik dini. Faqat bitta xudoga sig'inuvchi, birgina xudoni e'tirof etuvchi e'tiqod shakli. Zardushtiylik, xristianlik, islom dinlari monoteistik dinlar hisoblanadi.

polytheism	политеизм	politeizm	(yunoncha "poly" – ko'p, "theos" – xudo) – ko'pxudolik dini. Politeizm ibtidoiy davr odamlariga xos bo'lib, unga ko'ra har bir qabila yoki urug'ning o'z xudosi va e'tiqod shakli mavjud bo'lgan (fetishizm, animizm, shomonlik, totemizm va boshq.).
civilization	цивилизация	sivilizatsiya	(lotincha "civilis" – fuqaro jamiyati, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot) – jamiyat erishgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sun'iy olamni moddiy va ma'naviy jihatdan takomillashuvdagi muvaffaqiyatlari ko'rsatkichi.
totemism	тотемизм	totemizm	– birorurug' yoki qabila ibtidosiga sig'inish e'tiqodi. Totem – biror urug' yoki qabila ibtidosi, urug' asoschisi, ajdod, urug' jamoalari topinib, uni muqaddas tutgan hayvon.
generation	потомок	avlod	(arabcha "valad" – bola so'zining ko'pligi) – umumiy ajdodlaridan qarindoshlik munosabatlari bilan bir xilda uzoqlashgan kishilar guruhi.
people	эл, народ	el	– buatama eng qadimgi turkiy so'zlardan hisoblanadi. El avvalo bir joyning odamlari ma'nosini bildiradi; Xorazm eli, Qoshqar eli. Bir qabilaga mansub kishilarga qo'llaniladi; qipchoq eli, mang'it eli. El so'zi ba'zan xalq, millat ma'nolarida ham ishlatiladi.

country, nation	элат, родина	elat	- kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi. Elatning kelib chiqishiga bir-biriga yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo'lgan. Uni xalqning millat bo'lib shakllanishidan oldingi bosqichi deb ham ataydilar. Etnografiya fanida qoidaga ko'ra o'rtoq, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholiga nisbatan "xalq", ko'chmanchi chorvador aholiga nisbatan "elat" tushunchalari ham qo'llaniladi.
ethnogeny	этногенез	etnogenez	(yunoncha "etnos" - xalq, "genesis" - tug'ilish) - biron bir xalqning kelib chiqish jarayoni.
ethnonim	этноним	etnonim	- bironbir xalqning nomi.
mitra	митра	mitra	- zardushtiylik dinida quyosh vayorug'likxudosi. Dehqonlar va chorvadorlar himoyachisi, hosil va ma'murchilik, to'kin-sochinlikni ta'minovchi, Axuramazda bilan odamlar o'rtasidagi asosiy vositachi bo'lgan. Mitra jangchi yigit qiyofasida tasvirlangan.
ossuariy	оссуарий	ostadon	- zardushtiylarningdafi marosimiga tegishli odam suyaklari saqlanadigan sopol idish, sandiqcha.
spitama	спитама	spitama	- Payg'ambar Zardusht urug'ining nomi.
huma	хумо	xumo	- baxtva boylik ilohasi. Ko'zga ko'rinmas jannat qushi. Zardushtiylar e'tiqodiga ko'ra Xumo qushi kimning boshiga soya solsa, o'sha kishi baxtli va boy bo'ladi deb hisoblashgan.

Zoroastrian	Зороастр	Zardusht	- zardushtiylikdinining bosh islohotchisi. Tarixiy shaxs. Zardushtning tug'ilgan joyi aniq emas. Olimlarning taxminiy faraz qilishlaricha u Turonzamin viloyatlaridan birida, ya'ni Xorazm yoki Sug'diyonada koinlar oilasida tug'ilib o'sgan. U Spitama urug'idan bo'lib, otasining simi Porushasp, onasining ismi Dug'dova bo'lgan. Taxminan miloddan avvalgi 630-553-yillarda yashab o'tgan. Dariy tilida "ushtra" tuya, "zarat" keksa sariq tuya ma'nosida. Zardusht - tuyachi, tuyachilar avlodidan degan ma'noni bildiradi.
budizm	буддизм	buddaviylik	- paydo bo'lishi tarixiy davriga ko'ra, birinchi jahon dini hisoblanib, bundan 2600 yil avval shimoliy-sharqiy Hindistonda vujudga kelgan. Uning asoschisi shahzoda Siddxartxa Gautamadir. Siddxartxa vafotidan so'ng Buddha ("Nurlangan", "Oliy haqiqatga erishgan", "Haqiqat najotkori") deb atalgan. Buddaviylik dinining nomi ana shundan olingan.

the great silk road	великий шелковый путь	buyuk yo'li ipak	- G'arb bilan Sharqni bir necha asr mobaynida bir biriga bog'lab kelgan yo'l. Bu yo'l fanga 1877 yilda nemis olimi K. Rixtgofen tomonidan shunday nom bilan kiritildi. Unga qadar bu yo'l "G'arbiy meridional yo'l" deb atalib kelinardi. Buyuk Ipak yo'li 12 ming km. uzunlikda bo'lib, u Sariq dengiz sohillaridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya, Suriya orqali O'rta yer dengizi sohillarigacha davom etgan.
kushon state	кушанское царство	k u s h o n davlati	- milodimizning I-IV asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston, shimoliy-g'arbiy Hindiston va shimoliy-sharqiy Eron hududlarida hukmronlik qilgan sulola. O'zbek davlatchiligi tarixida Kushonlar davlati saltanat (imperiya) darajasiga ko'tarilgan dastlabki davlat birlashmasidir.
place of pilgrimage in mecca	байталлах (дом бога)	baytulloh	- Makkaislom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ollohning uyi-Ka'baga berilgan nom.

jiz'ya	жизья	jiz'ya	- dastlab Arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlarida shariat me'yorlariga ko'ra musulmon bo'lmagan fuqarolardan olinadigan jon solig'i. Jiz'ya balog'atga yetganlardan olingan. Qariyalar va ayollar, bolalar, qul va gadoylar jiz'yadan ozod etilgan.
caliph	халиф	xalifa	- o'rinbosar, noib, muovini. Muhammad Payg'ambar vafotidan so'ng vujudga kelgan Arab xalifaligining (632-1258) diniy va dunyoviy boshlig'i. Birinchi to'rt xalifa Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656) va Alilar (656-661) "al-Xulafo ar-roshidun" - to'g'ri yo'ldan boruvchi halifalar nomi bilan mashhur bo'lganlar.
land tax	харадж	xiroj	- Yaqin Sharq va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan O'rta Osiyoda davlat tomonidan undiriladigan yer solig'i. Xiroj O'rta Osiyoda VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan.

zakot	закат	zakot	(arabcha – tozalanish) – islom dinining besh asosiy talablaridan biri bo'lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, hayr-ehson, soliq. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va chovdorlarda olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo'lgan. Zakot kambag'allar, yetim-yesirlar, kasallar va hech kimi yo'q ayollar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan.
sermon read from the khutba in a mosque	хатиб	xatib	– odatda masjidda juma va diniy bayram kunlari, ya'ni hayit namozlari paytida xutba o'qiydigan dindor.
khutba	хутба	xutba	– juma va ulug' ayyom kunlari masjidda imom-xatib tomonidan aytiladigan oyatu hadislar, pandu nasihatlar. Shuningdek, o'rta asrlarda xalifa va mahalliy hukmdor nomini tilga olib imom tomonidan o'qiladigan duo ham xutba deb atalgan.

gazie	гази	G'oziy	– islom dini uchun g'ayri dinlarga qarshi muqaddas urush – g'azovot ishtirokchisi. Shariatga ko'ra, bunday urushda oti va qurol-yarog'i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo'lgan. Kambag'allar, qullar, nogiron va keksalar bundan ozod etilgan.
-------	------	--------	--

MUNDARIJA

Kirish.....	3
JAHON DINLARI: BUDDAVIYLIK.....	4
JAHON DINLARI: XRISTIANLIK.....	13
JAHON DINLARI: ISLOM.....	24
JAHON DINLARI: BUDDAVIYLIK, XRISTIANLIK VA ISLOM MAVZULARI BO'YICHA JORIY NAZORAT SAVOLLARI.....	39
JAHON DINLARI: BUDDAVIYLIK, XRISTIANLIK VA ISLOM MAVZULARI BO'YICHA TEST SAVOLLARI.....	41
DINSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BO'YICHA TAVSIYALAR	48
"DINSHUNOSLIK" FANINI O'QITISH JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK USLUB VA TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.....	49
TA'LIM VOSITALARI: TUSHUNCHA VA MAZMUNI.....	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	59
GLOSSARIY.....	60

QAYDLAR UCHUN

Jumayeva Shoiri Berdiyarovna

DINSHUNOSLIK


O'quv-uslubiy qo'llanma

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 03.07.2024 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Cambria"
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 4,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 73.

«Renesans sari» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.
+998 94 673 66 56

ISBN 978-9910-9359-5-4



9 789910 935954